

## FARG'ONA VILOYATINING TUPROQ QOPLAMIDA DORIVOR ZAFARON O'SIMLIGINI YETISHTRISH

**Mamatqulov Orifjon Odiljon o'g'li**

Farg'ona Davlat Universiteti o'qituvchisi

**Qobilov Soxib Sherovich**

Farg'ona Davlat Universiteti q.x.f.n

**Yokubov Sherzodbek Shavkat o'g'li**

Farg'ona politexnika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7246818>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada zafaron o'simligi ahamiyati, xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Zafaron o'simligining tibbiyot sohasida ahamiyati kattaligi yoritilib, qaysi kasalliklarni davolashda ishlatilishi, o'simlik ekin maydonlarini ko'paytirish orqali erishishimiz mumkin bo'lgan yutuqlar haqida yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* Zafaron, tibbiyot, kasallik, da'vo, foyda, samaradorlik, eksport, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi.

## ВЫРАЩИВАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО ШАФРАНА В ПОЧВЕННОМ ПОКРОВЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

*Аннотация.* Эта статья содержит информацию о важности и свойствах растения шафран. Объяснено большое значение растения шафран в области медицины, при лечении каких заболеваний используются, и достижения, которых можно добиться за счет увеличения посевных площадей растения.

*Ключевые слова:* Шафран, лекарство, болезнь, претензия, прибыль, эффективность, экспорт, продовольствие, сельское хозяйство.

## CULTIVATION OF MEDICINAL SAFFRON PLANT IN THE SOIL COVER OF FERGANA REGION

*Abstract.* This article contains information about the importance and properties of the saffron plant. The great importance of the saffron plant in the field of medicine was explained, which diseases are used in the treatment, and the achievements that can be achieved by increasing the cultivated areas of the plant.

*Key words:* Saffron, medicine, disease, claim, profit, efficiency, export, food, agriculture.

## KIRISH

Bugungi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o'simliklarga bo'lgan talabning keskin ortishiga sabab bo'ldi [1,2,3].

Shunday o'simliklardan biri ham dorivor, ham ziravor bo'lgan oziq-ovqat, farmatsevtika va parfyumeriya sanoati uchun qimmatbaho xomashyo hisoblangan "ziravorlar sultoni" nomi bilan mashhur bo'lgan o'simlik – za'faron bugungi kunda dunyodagi eng qimmat o'simlik hisoblanadi. Za'faron O'rta yer dengizi, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarida, jumladan Eron, Hindiston, Turkiya, Gretsiya, Italiya, Pokiston, AQSH, Ozarbayjon, Rossiya,

shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston hududlarida ham katta plantatsiyalarda yetishtirilmoqda.

Ushbu birgina o'simlikning keng ommalashishi, pandemiya davrida aholi salomatligi uchun shifobaxsh mahsulotlar turlariga talabning ortishi, suv taqchilligi davrida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun yuqori daromad manbai ekanligidan ko'rinib turibdiki, dorivor o'simliklar sohasi respublikada endi rivojlanayotgan, misli ko'rinmas katta tabiiy zahiraga ega istiqbolli sohalardan biri bo'lib, ushbu sohani yana-da rivojlantirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, sohaning yagona bir tizimga birlashishi zamon talabi hisoblanadi [1,4,5].

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o'simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o'tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o'simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Zafaron dorivorlik xususiyatibilan halq orasida keng nom qozongan o'simlik hisoblanadi. Bu o'simlik kelib chiqish xususiyatiga ko'ra ko'p yillik piyozboshli o'simlik hisoblanib kasatiklar oilasiga mansub. O'simlikning nomi arab tilidan tarjima qilinganda "sariq, sap-sariq" degan ma'nolarni bildiradi. Zafaronning narxi juda qimmatbaho hisoblanib bir gram zafaron bir gramm oltin bahosiga tenglashtiriladi

Yevropa malakatlarida bu o'simlik arablar istilosigacha mavjud bo'lmagan va arablar istilosidan keyin kirib kelgan. Hidi juda hushbo'y, bo'lib ovqatga ziravor sifatida ishlatilgan bundan tashqari zafaronni yurak qon tomir kasalliklari, asabiylashish, ko'rish o'tkirligini yaxshilashdava imunitetni ko'taruvchi o'simlik sifatida ishlatiladi [6,7,8].

Mamalakatimizda zafaronning bir necha endemik turlari o'sadi lekin ular yetarli darajada o'rganilmagan. Shu munosabat bu turni to'liq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi

Butun dunyoda yetishtirilaayotag zafaron juda oz miqdorda bo'lib atiga 300 tonnani tashkil qiladi shundan 175 tonnasi Eronda yetishtrilib 120 tonnasi eksport qilinadi.



1-rasm.

O'zbekistonda zafaron yetishtirsa uchun u o'sadigan sharoitlarni keltirib o'tamiz. Zafaron issiqsevar o'simlik hisoblanib asosan tuproqda tabiiy namlik bo'lgan hollarda lalmi hududlarda tabiiy ravishda o'stirish mumkin [9,10,11]

## TADQIQOT NATIJALARI

Bu o'simlik tuproqda namlik tugashi ya'ni bahorning ikkinchi yarmi va yozning boshlarida qurib ketadi. Zafarondan ko'p hollarda bir marta hosil olinadi lekin sharoit va muhitni suniiy yaxshilash orqali (issiqxona sharoitida) ikki marta hosil olishga erishilsa bo'ladi. Zafaron bahor va kuz nfaslida gullaydi ko'pincha bahorgi hosildirlik yuqori bo'lib kuzda hasildorlikning pasyishi kuzatiladi.

Kuz faslida gullashi uchun havoning harorati 12° S bo'lishi kerak va albatta navlarning to'g'ri tanlanishiga katta e'tibor qaratiladi. Zafaronning bo'yi 10-12 sm bo'ladi. Bu o'simlikning otalik changchilari va gultojibarglari dorivorlik xususiyatini ko'proq bo'ladi, changchilar gulning o'rtasida uchtadan joylashadi. 1 kg shunday dorivor changchilarni yeg'ish uchun 200 ming o'simlik guli kerak bo'ladi. Gultojibarglari 6 ta, rangi qo'ng'ir bo'ladi. Zafaron hosilini yetishtirish uchun bo'yog'i 3 kun muddat ajratilgan shu vaqtada keyin gullar qurib ketadi. Zafaron o'siligi piyozboshdan ko'paytiriladi bu piyozboshlar yoz paytida ekiladi va unib chiqish mudati yetib kelguncha ildiz otishga vaqat yetrali hisoblanadi [12,13]. Yirik piyozboshlar 8-10 sm, kichiklari esa 4-5 sm chuqurlikka ekiladi. Ekishdan oldin jo'yaklarga chirindi va organik moddalar bilan ishlov berish maqsadga muvofiq bo'ladi [14].



2-rasm

## MUHOKAMA

Agrotehnik tadbirlar yaxshi ko'stilgan bo'lsa bir gehtar yerda 20 kg gacha hosil yetishtirsa bo'ladi. Odatdagi hosildorlik 5-8 kg ni tashkil qiladi. Hozirgi kunda 1 kg zafaronning narxi 2500 dan 5000 dollarga baholanadi.

Hozirgi kunda bizning iqlim sharoitimizda bu o'simlikni yetishtirish uchun tajriba ishlari olib borilmoqda va bu natijalar ijobiy bahlanyapti. Mazkur o'simlikni tog' oldi hududlarimizda va tekis cho'llarimizda yetishtirishga imkoniyat bor. Agar yetishtirish bo'yicha tajribalar oxiriga yetib to'liq ijobiy natija olinsa mazkur o'simlikni piyozboshlari Erondan olib kelib ko'pytirsa bo'ladi [15,16].

## XULOSA

Tog' oldi hududlar tabiiy namgarchilik bilan yetrali darajada ta'minlanganligi boyis uy yerda ortiqcha sarf harajat va mehnatlarsiz o'simlik hosilini yetishtirib eksprotga yo'naltirilsa bu respublikamiz iqtisodiyoti uchun salmoqli daromad manbasi bo'la oladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, zafaron nafaqat qishloq xo'jaligi sohasida balki tibbiyot sohasida juda qimmatli va o'rni benihoya katta bo'lgan o'simliklardan biri hisoblanadi. Uning ekin maydonlarini kengaytirish o'sish sharoitida maqbul agrotexnologiyalarni qo'llash orqali hosildorligini oshirishga erishish yuqori natijadorlikka xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Mamatkulov O. O., Numanov J. O. Recycling of the Curve Planning in Gat Technology (Auto Cad) Program //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 418-423.
2. Arabboevna A. M., Shavkat o'g'li Y. S. The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 8. – C. 163-164.
3. Ugli M. O. O. RECYCLING OF THE CURVE PLANNING IN GAT TECHNOLOGY (Auto CAD) PROGRAM //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 11. – C. 480-483.
4. Ogli Y. S. S., O'G'Li A. P. A. KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 25. – №. 5. – C. 23-25.
5. Sodiqova Z. T. et al. DANAKLI MEVA KASALLIKLARIGA QARSHI KURASHISH YO'LLARI //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 240-244.
6. Khakimova K. R. et al. SOME TECHNOLOGICAL ISSUES OF USING GIS IN MAPPING OF IRRIGATED LANDS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 4. – C. 226-233.
7. Mamatkulov O., Qobilov S., Abdullaaxatov A. FARG 'ONA VILOYATI SHAROITIDA TOK KASALLIKLARIGA QARSHI KURASHISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 307-311.
8. Zokir A., Sherzodbek Y., Durdona O. THE STATE CADASTRE FOR THE REGULATION OF INFORMATION RESOURCES FOR THE FORMATION AND IMPROVEMENT //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 47-53.
9. Xayitmurotovich K. I., Qizi M. G. M., Odiljon O'g'li M. O. Root System Development And Its Activity //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 65-69.
10. Mukhriddinkhonovich A. Z. Actual Issues of Design of Small Towns in Uzbekistan //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 576-580.
11. O'G'Li S. Y. S., Zuxriddinova M. S., Qizi A. S. B. THE USE OF MAPINFO PROGRAM METHODS IN THE CREATION OF CADASTRAL CARDS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A3. – C. 278-283.

12. Sherzodbek Y., Durдона O. THEORETICAL BASIS FOR THE USE OF MODERN GIS TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF NATURAL CARDS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 4-10.
13. Sherzodbek Y., Sitora M. THE ESSENCE OF CARTOGRAPHIC MAPS IS THAT THEY ARE USED FOR CARTOGRAPHIC DESCRIPTION OF THE TERRAIN. GENERALIZING WORKS IN THE PREPARATION OF MAPS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 27-33.
14. Shavkat o'g'li Y. S., Avazbek o'g'li A. A. Ways to Improve the Application of Cartographic Research Method in the Development and Equipment of Land Resources Cards //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 139-145.
15. Shavkat o'g'li Y. S., Zuxriddinovna M. S., Qizi O. D. S. ARC Create an Agricultural Card in GIS and Panorama Applications //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 429-434.